

## **O'RTA MAKTAB YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI TEZ VA OSON O'RGATISH METODLARI**

**G'aniyeva Gulhayo**

Alfraganus universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'rganish tizimi hamda bolalarga ingliz tilini tez va samarali o'rgatish metodlari tahlil qilinadi. Globalizatsiya sharoitida gamifikatsiya, TBL, CLIL va PBL metodlari bolalarning til o'rganish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar Piaget, Vygotsky, Bruner va Gardner nazariyalariga asoslanib, bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** - *Ingliz tilini o'rgatish- Gamifikatsiya, Task-Based Learning (TBL), Content and Language Integrated Learning (CLIL), Project-Based Learning (PBL), Pedagogik texnologiyalar, Interaktiv metodlar, Bolalarning kognitiv rivojlanishi, O'zbekistonda chet tillarni o'rganish, Globalizatsiya va ta'lim.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the system of learning foreign languages and methods for quickly and effectively teaching English to children. In the context of globalization, gamification, TBL, CLIL and PBL methods help to effectively organize the language learning process of children. These approaches, based on the theories of Piaget, Vygotsky, Bruner and Gardner, have a positive effect on the cognitive and social development of children.*

**Keywords:** - *Teaching English - Gamification, Task-Based Learning (TBL), Content and Language Integrated Learning (CLIL), Project-Based Learning (PBL), Pedagogical technologies, Interactive methods, Cognitive development of children, Learning foreign languages in Uzbekistan, Globalization and education.*

### **KIRISH**

O'zbekistonda chet tillarini mukammal o'rganishga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda bir qator muhim qarorlar qabul qilingan. Bunga asoslanib 2020 yil 6-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori asosida ta'limda keng ko'lamda ishlar olib borilmoqda.

Chet tillarini mukammal o'rganish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mamlakatning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyati va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ingliz tilini bolalarga tez va oson o'rgatish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Globalizatsiya jarayonining tezlashuvi va ingliz tilining xalqaro muloqot tili sifatida keng tarqalishi, ushbu tilni erta yoshdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tabiiy ravishda yangi bilimlarni tez qabul qilishadi va ularga qiziqarli interaktiv metodlar orqali ta'lim berish yanada samarali bo'ladi. Bolalarning diqqat e'tiborini jalb qiladigan ularni til o'rganish jarayoniga qiziqtiradigan samarali usullarni ko'rib chiqiladi. Har bir usul ilmiy asoslangan bo'lib, ularning amaliy qo'llanishi haqida ham ma'lumot berib o'tamiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tilni o'rgatish jarayonini qiziqarli va ijodiy ta'minlash maqsadida ped-texnologiyalar va ilovalarni ham keltirib o'tish joiz.

Gamefikatsiya, o'yinlar, musiqalar, vizual materiallar va interaktiv hikoyalar kabi usullar bolalarning tilni o'rganish jarayonini yengillashtirishga yordam beradi.

Ingliz tilini o'rganishni nafaqat qiziqarli va samarali usullarini, balki bu usullarni qo'llashning ilmiy asoslarini ham ko'rib chiqamiz. Masalan, o'yin va musiqalar orqali o'rgatish Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga asoslangan bo'lsa, ijtimoiy va interaktiv o'rganish Lev Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga asoslanadi. Bundan tashqari, hikoya va dialoglar Jerome Brunerning hikoya nazariyasiga asoslanadi va har bir bolaning individual qobiliyatlarini hisobga olish Howard Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi bilan bog'liq.

Bolalarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishda ularga bir nechta misollar keltirib o'tishimiz joiz deb bilamiz.

Gamefikatsiya (O'yin elementlar va o'yin dizayni)

Misol: Duolingo (Ikki tilni o'rganish)

Bu platforma o'yin elementlari va mukofotlar orqali til o'rganishni qiziqarli qiladi. Bolalar har bir dars uchun ballar to'plab, darajalarni ochishadi va do'stlari bilan raqobatlashadilar.

Misol uchun, har bir darsning oxirida bolalar mukofot sifatida yulduzchalar yoki noyob belgilar olishlari mumkin. Bu o'quvchilarni darslarda faol ishtirok etishga undaydi.

Task-Based Learning (TBL) (Vazifaga asoslangan ta'lim)

Misol: Supermarketda xarid vazifasi:

Bolalarga supermarketda xarid qilish vazifasi beriladi. Ular mahsulotlar ro'yxatini olishadi va ingliz tilida xarid qilishadi. Bu o'qitish usuli bolalarga real hayotiy vazifalarni bajarish orqali ingliz tilini amaliy qo'llashga yordam beradi.

Misol: "Please find and buy 1 liter of milk, 2 apples, and a loaf of bread." (Iltimos, bir litr sutdan 2 ta olma va bir bo'lak non sotib oling)

CLIL (Content and Language Integrated Learning) Misoli:

Tabiatshunoslik fani:

Bolalar tabiiy fanlarni o'rganish orqali ingliz tilini o'rganadilar. Masalan, o'qituvchi daraxtlarning tuzilishi va ularning hayotiy siklini ingliz tilida tushuntiradi. Bu usul bolalarga bir vaqtning o'zida yangi bilimlarni o'rganish va ingliz tilini oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Project-Based Learning (PBL) (Loyihaga asoslangan ta'lim)

Misol: Ekologiya Loyihasi:

Bolalarga ekologiya mavzusida loyiha tayyorlash topshirig'i beriladi. Ular o'zlari tanlagan ekologik muammo haqida ma'lumot to'plashadi va bu ma'lumotni ingliz tilida taqdim etishadi. Misol: "Investigate the effects of plastic pollution on marine life and present your findings in English." (Plastmassa chiqindilar dengiz hayotiga ta'sirini ingliz tilida xulosangizni taqdim eting)

## **XULOSA**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yondashuvlar bolalarga ingliz tilini qiziqarli va oson o'rganish imkonini beradi, shu orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini tez va oson o'rgatish uchun gamifikatsiya, task-based learning (Vazifaga asoslangan ta'lim) CLIL (Kontent va Tilni Integratsiyalashgan O'rganish) va project-based learning (Loyihaga asoslangan ta'lim) kabi usullar juda samarali hisoblanadi. Bu usullar bolalarni qiziqtiradi va ularni til o'rganish jarayoniga jalb qiladi. Ushbu metodlar nafaqat qiziqarli, balki ilmiy asoslangan bo'lib, bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga katta yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Brown, H. Douglas. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, Jack C., & Rodgers, Theodore S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching". Cambridge University Press.
3. "Harmer, Jeremy." (2007). "The Practice of English Language Teaching". Longman.
4. "Lightbown, Patsy M., & Spada, Nina." (2013). "How Languages are Learned". Oxford University Press.
5. "Larsen-Freeman, Diane." (2000). "Techniques and Principles in Language Teaching". Oxford University Press.

6. "Nation, I. S. P." (2001). "Learning Vocabulary in Another Language". Cambridge University Press.
7. "Ellis, Rod." (1997). "Second Language Acquisition". Oxford University Press.
8. Thornbury, Scott.(2006). "An A-Z of ELT". Macmillan.
9. "Ur, Penny." (2012). "A Course in English Language Teaching". Cambridge University Press.
10. "Scrivener, Jim." (2011). "Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching". Macmillan.

**Foydalanilgan Saytlar:**

1. "TESOL (Teachers of English to Speakers of Other Languages)" – [www.tesol.org](https://www.tesol.org)
2. "Cambridge English" – [www.cambridgeenglish.org](https://www.cambridgeenglish.org)
3. "British Council" – [www.britishcouncil.org](https://www.britishcouncil.org)
4. "ELT Journal (Oxford Academic)" – [academic.oup.com/eltj](https://academic.oup.com/eltj)
5. "International Association of Teachers of English as a Foreign Language (IATEFL)" – [www.iatefl.org](https://www.iatefl.org)
6. "Educational Technology and Mobile Learning" – [www.educatorstechnology.com](https://www.educatorstechnology.com)
7. "Language Learning & Technology (LLT Journal)" – [www.lltjournal.org](https://www.lltjournal.org)
8. "Teaching English (British Council)" – [www.teachingenglish.org.uk](https://www.teachingenglish.org.uk)